

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.26/04.07.2023.T.11.03 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
QORAQALPOG'ISTON BO'LIMI  
QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**DOSPANOV RAXIM RAUAJ ULI'**

**SHAHARSOZLIK OBYEKTLARINI XAVFSIZ EKSPLUATATSIYALASH  
UCHUN POYDEVORLARNI LOYIHALASHDA GAT-  
TEXNOLOGIYALARINI QO'LLAGAN HOLDA MUHANDISLIK-  
GEOLOGIK RAYONLASHTIRISH (XO'JAYLI TUMANI MISOLIDA)**

18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar-joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi.

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Dospanov Raxim Rauaj uli’**

“Shaharsozlik obyektlarini xavfsiz ekspluatatsiyalash uchun poydevorlarni loyihalashda GAT-texnologiyalarini qo‘llagan holda muhandislik-geologik rayonlashtirish (Xo‘jayli tumani misolida)”..... 3

**Доспанов Рахим Рауаж улы**

Инженерно-геологическое районирование проектирования фундаментов с применением ГИС-технологий для безопасной эксплуатации градостроительных объектов (на примере Ходжейлийского района..... 23

**Dospanov Rakhim Rauaj uli’**

Engineering-geological zoning of foundations using GIS technologies for the safe operation of urban planning facilities (using the example of the Khojeyli district) ..... 43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 51

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.26/04.07.2023.T.11.03 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
QORAQALPOG'ISTON BO'LIMI  
QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**DOSPANOV RAXIM RAUAJ ULI'**

**SHAHARSOZLIK OBYEKTLARINI XAVFSIZ EKSPLUATATSIYALASH  
UCHUN POYDEVORLARNI LOYIHALASHDA GAT-  
TEXNOLOGIYALARINI QO'LLAGAN HOLDA MUHANDISLIK-  
GEOLOGIK RAYONLASHTIRISH (XO'JAYLI TUMANI MISOLIDA)**

18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar-joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi.

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent–2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T5797 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda o'zbek, rus, ingliz (rezyume), Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://taqu.uz>) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Aimbetov Izzet Kalliyevich**  
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Sodiqov Jamshid Ibroxim o'g'li**  
texnika fanlari doktori, professor

**Usmonov Quvat Turdiyevich**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**“Qishloqqurilishloyiha” DM**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 26/04.07.2023.T.11.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “27” noyabr kuni soat 14-<sup>00</sup> daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangi shahar ko'chasi 9-uy, 4-bino, 5-qavat, faollar zali, tel.: +998 (55) 508 02 56. e-mail: [devon@taqu.uz](mailto:devon@taqu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№177raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani Yangi shahar ko'chasi, 9-uy. tel.: +998 (71) 142 65 85).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 12-noyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 4-noyabrdagi № 9/2025-2 raqamli reestr bayonnomasi).

**A.T. Xotamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**F.A. Abdixalilov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

**I.S. Shukurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahonning barcha mamlakatlarida yirik va kichik shaharlar soni keskin sur'atlar bilan ortib bormoqda. Urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi, yangi shaharlarning vujudga kelishi hamda mavjud shaharlarning qayta qurilishi va rekonstruksiya global miqyosda eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, shaharsozlik jarayonida tabiiy-geologik sharoitlarni hisobga olish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki shahar hududlarining geologik tuzilishi, gruntlarning muhandislik-geologik xossalari, yer osti suvlarining tarqalishi va ularning dinamikasi qurilish obyektlarining barqarorligi va xavfsizligi masalalarning yechimida o'ziga xos yondashuvni talab qilmoqda. Bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlarda, jumladan, AQSH, Angliya, Germaniya, Fransiya, Singapur, Italiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda shahar infratuzilmasini loyihalashda yer osti geologik ma'lumotlarini o'rganish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.. Shu bois shaharsozlik muammolarining geologiya bilan uzviy bog'liqligi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'ta dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Jahonda shaharsozlik jarayonlarida muhandislik-geologik tadqiqotlar va geotexnik xavflarni kamaytirishga oid ilmiy izlanishlar keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, muhandislik-geologik qidiruv o'tkazish, grunt suvlarining sho'rlanishini kamaytirish uchun drenaj tizimlarini barpo etish, poydevorlarning yuk ko'tarish qobiliyatini aniqlashda geotexnik modellashtirish usullaridan foydalanish, hamda ekologik xavflarni baholash asosida muhandislik-geologik rayonlashtirishni amalga oshirish jarayonlarida ilg'or texnologiyalaridan foydalanish ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, ekologik omillarni inobatga olish, yer osti suvlarining monitoringini yuritish va barqaror shaharsozlikni ta'minlashda GAT texnologiyalaridan keng foydalanish ham bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamiz shaharlarning chegaralari kengaytirilmoqda, binolarni qayta qurish va rekonstruksiya qilish amalga oshirilmoqda, qishloq joylarda binolar qurilmoqda. Shaharsozlik va qishloq joylarini rejalashtirishni ishonchli amalga oshirish uchun muhandislik-geologik va ekologik sharoitlarning xususiyatlarini hisobga olish zarur. Geologik ma'lumotlarni hisobga olmasdan, qurilish inshootlarning xavfsizligi va chidamliligiga tahdid soladigan jiddiy muammolarga duch kelishi mumkin. Qoraqalpog'istonning ekologik sharoitlaridan biri grunt va grunt suvlarining sho'rlanishidir. So'nggi yillarda gruntlarning sho'rlanishi va yer osti suvlari sathining ko'tarilishi kuzatilmoqda. Bu esa gruntlar va grunt suvlarining agressivlik darajasining oshishiga olib keldi, natijada poydevorlar buzildi, bino devorlari va yer osti muhandislik kommunikatsiyalarining muddatidan oldin yemirilishi sodir bo'ldi. Ta'kidlash joizki, Qoraqalpog'istonda shaharlar chegaralarini kengaytirish, ularni rekonstruksiya qilish, qishloq joylarini qurishda sho'rlanish va poydevor asoslarining yuk ko'tarish qobiliyatini muhandislik-geologik rayonlashtirish ishlari olib borilmayapti, bu esa qishloq joylarini sifatli shaharsozlik va rejalashtirishni amalga oshirish imkonini bermayapti.

2021-yil 18-may kuni BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasining yalpi

majlisida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan taklif etilgan Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi maxsus rezolyutsiya bir ovozdan qabul qilindi. Hujjatda aytilishicha, atrof-muhitni tiklash va yaxshilash, tabiiy resurslarni asrab-avaylash, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash hamda mintaqa aholisining hayot sifati va farovonligini yaxshilash maqsadida ilmiy-tadqiqot, innovatsion ishlanmalar va maslahat faoliyatini har tomonlama rag‘batlantirish ko‘zda tutilgan. Mazkur qaror Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan xalqaro sa‘y-harakatlarni muvofiqlashtirishda muhim qadam bo‘ldi. Ushbu tashabbus mintaqada yashayotgan millionlab insonlar uchun yanada barqaror va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish imkonini beradi. <sup>1</sup> “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida qulay ekologik sharoitlarni yaratish g‘oyasi aks ettirilgan bo‘lib, uni hayotga tatbiq etish uchun turli obyektlarni qurish hajmini kengaytirish rejalashtirilgan. “Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joylar bilan ta‘minlash darajasini oshirish” Strategiyaning maqsadlaridan biridir. Ushbu maqsadga erishish uchun uy-joylar qurish hajmini oshirish, tuman (shahar) larning bosh rejalari va master-rejalarini toifalarga ajratgan holda ishlab chiqishni amaliyotga joriy etish rejalashtirilmogda. Bu esa hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va aholining turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Yer haqidagi fanlar” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Geologik muhitning shaharsozlikka ta’siri, muhandislik-geologik va geotexnik zonalash, gruntlarning fizik-mexanik xossalari, yer osti suvlari rejimi, hamda antropogen omillarning barqarorlikka ta’siri kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo‘shganlar, jumladan Yevropa va boshqa mintaqalar miqyosida R. Legglet, González de Vallejo, He L., Jiao Y., Zhang Y., Zheng F., Peng H., Ranjith P. G., Meelli L., Faralli L., Ghafoor S., Mostafa S., Khalifa A., El-Alfy M., Azarafza M., Ghazifard A., Pando L., Flor-Blanco G., Llana-Fúnez S., Akter S., Ali R. M. E., Karim S., Khatun M., Alam M. F., Culshaw M. G., Reeves H. J., Jefferson I., Spink T. W. va boshqalarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari MDX miqyosida R.S. Kuznetsov, A.P. Dolganov, Barishnikov V.I., Kuchukov E.Z., Filkin N.A., Voronin A.M. va boshqa olimlarning ilmiy ishlanmalarida geologik muhitning shaharsozlikdagi ahamiyati tizimli ravishda yoritilgan bo‘lib, u zamonaviy qurilish va rejalashtirish jarayonlarida muhim omil sifatida qaraladi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda amalga oshirilgan ishlar va yangiliklar dunyo miqyosida shaharlar chegaralarining kengayishi bu soxani yanada rivojlantirish va yangi tizimni joriy etishni talab etmoqda. Hozirgi kunda bu sohani rivojlantirishga o‘z xissalarini ko‘shayotgan ilmiy tadqiqotchi olimlardan geologik muhitning

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni

shaharsozlikka ta'sirini tadqiq qilish bo'yicha G.A.Mavlyanov, A.T.Xotamov, V.A. Ismailov, I.I. Usmonxodjaev, I.A.Agzamova, R.M.Xudoyqulov, A.D.Qayumov, Ya.S.Sodiqov, I.K.Aimbetovlarning ishlari bag'ishlangan bo'lib, ularda O'zbekistonning gruntlarini tadqiq qilish natijalari keltirilgan bo'lib, ularning tahlili shuni ko'rsatadiki, namlik va tuzlar gruntlarning fizik-mexanik ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi, bino va inshootlarning yer osti qismi va devorlarining muddatidan oldin eskirishiga olib keladi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining amaliy loyihalari doirasida amalga oshirildi. "Qoraqalpog'iston tuproqlarining fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq etish. Qoraqalpog'istonning sho'rlangan tuproqlarida bino va inshootlar qurilishining muhandislik-geologik asoslarini yaratish" (2021-2025) FA-Atex-2018-62 loyihasi asosida bajarildi.

**Tadqiqotning maqsadi** Xo'jayli tumani shaharsozlik obyektlarini muhandislik-geologik sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali va xavfsiz loyihalashni ta'minlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Sho'rlangan gruntlarning muhandislik-geologik xususiyatlarini o'rganishga oid mavjud fond materiallari va ilmiy tadqiqotlarni yig'ish hamda tizimlashtirish, shuningdek, qurilish jarayonida binolarning cho'kish holatlarini tabiiy sharoitda kuzatish bilan birga muhandislik-geologik tadqiqotlar olib borish va dala kuzatuv natijalarini hisoblash usullari asosidagi raqamli natijalar bilan solishtirish;

Xo'jayli tumani gruntlari va grunt suvlari sho'rlanishining ulardagi sulfatli, xloridli va gidrokarbonatli tuzlar miqdori bo'yicha kompyuter sxematik GAT xaritalari seriyasini tuzish;

Xo'jayli tumanidagi gruntlarning GOST 31108-2020 standartiga muvofiq tayyorlangan portlandsement va sulfatga chidamli sementdan tayyorlangan betonlarga agressiv ta'siri bo'yicha va Xo'jayli tumanidagi grunt suvlarining po'lat armaturalarga agressiv ta'siri bo'yicha rayonlashtirish;

Xo'jayli tumanining tasmaimon va qoziqli poydevorlarining yuk ko'tarish qobiliyatini kompyuter GAT xaritalari seriyasini tuzish va litologik profillarini tuzish;

Xo'jayli tumani sharoitida sho'rlangan gruntlarda bino va inshootlarni loyihalashni muhandislik-geologik asoslash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Xo'jayli tumanining sho'rlangan gruntlari va grunt suvlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** Xo'jayli tumani sharoitida poydevorlarni loyihalashni muhandislik-geologik rayonlashtirish hisoblanadi. Xo'jayli tumanining muhandislik-geologik va gidrogeologik sharoitlarida sho'rlangan gruntlarda bino va inshootlarni optimal loyihalash va ulardan xavfsiz foydalanishni asoslash.

**Tadqiqot usullari:** Tadqiqotda muhandislik-geologik izlanishlar amaliyotida qo'llaniladigan usullardan, jumladan, binolarning cho'kishini tabiiy kuzatish,

gruntlarning tarkibi va fizik-mexanik xossalarini laboratoriya tadqiqotlari, arxiv materiallarini tizimlashtirish, kompyuter GAT texnologiyalarini qoʻllagan holda hududlarni muhandislik-geologik xaritalash, bino va inshootlar poydevorlarini hisoblashda qoʻllaniladigan sonli va analitik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

GAT texnologiyalaridan foydalangan holda Xoʻjayli tumani gruntlari va grunt suvlari shoʻrlanish darajasini ifodalovchi kompyuter sxematik xaritalari seriyasi amaliyotda birinchi marta tizimli ravishda ishlab chiqildi.

GAT texnologiyalari asosida Xoʻjayli tumanidagi qoziqli hamda tasmasimon poydevorlarning yuk koʻtarish qobiliyati va tasmasimon poydevorlarning choʻkishiga oid kompyuter sxematik xaritalar seriyasi ishlab chiqildi.

Xoʻjayli tumani gruntlari boʻyicha GOST 31108-2020 standartiga muvofiq portlandsementda va GOST 22266-2013 standartiga muvofiq sulfatga chidamli sementda tayyorlangan betonlarga gruntlarning agressiv taʻsir darajasi, shuningdek, grunt suvlari tomonidan poʻlat armaturaga koʻrsatiladigan korroziya xavfi ilmiy asosda dastlabki marta rayonlashtirilgan.

Binolarning choʻkishiga doir tabiiy kuzatuv natijalari "Plaxis" kompyuter dasturi orqali bajarilgan hisoblash natijalari bilan birinchi bor ilmiy jihatdan taqqoslab tahlil qilindi va Xoʻjayli tumanining muhandislik-geologik sharoitida poydevorlar konstruksiyasiga shoʻr gruntlarning agressiv taʻsirini kamaytirishga doir asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Bino va inshootlarning yer osti beton konstruksiyalariga taʻsir etuvchi gruntlarning agressivlik darajasini koʻrsatadigan, grunt suvlari sathigacha boʻlgan gruntlarning shoʻrlanishini tavsiflovchi GAT sxematik xaritalari turkumlari tuzilgan;

Xoʻjayli tumani 1,0 m chuqurlikda joylashgan tasmasimon poydevor ostidagi gruntlarning hisobiy qarshiligining sxematik GAT xaritasi tuzilgan;

Xoʻjayli tumani grunt suvlari shoʻrlanishining bino va inshootlarning yer osti beton konstruksiyalariga taʻsiri boʻyicha agressivlik darajasini tavsiflovchi sxematik GAT xaritalari turkumlari tuzilgan, Xoʻjayli tumani grunt suvlari sathini pasaytirish boʻyicha muhandislik-geologik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Grunt suvlari sathigacha joylashgan gruntlarning agressivlik darajasini baholovchi, portlandsement (GOST 31108-2020) va sulfatga chidamli sementlar (GOST 22266-2013) asosida tayyorlangan betonlarga nisbatan taʻsirini hisobga olgan sxematik GAT xaritasi tuzildi. Shuningdek, grunt suvlarining poʻlat armaturaga nisbatan agressivlik darajasini aks ettiruvchi GAT xaritasi ishlab chiqilgan.

Xoʻjayli tumani sharoitlari uchun turli koʻndalang kesimli qoziqlar yuk koʻtarish qobiliyatining qoziq uzunligiga korrelyatsion bogʻliqliklari olingan;

Xoʻjayli tumani hududi uchun 0,05; 0,1; 0,15; 0,2; 0,25 va 0,3 MPa bosim intensivligi ostida lentasimon poydevorlarning choʻkishini aks ettiruvchi sxematik GAT xaritalari tuzilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Xoʻjayli tumanidagi chuqurligi 8,0 metr boʻlgan 59 ta quduqda oʻtkazilgan muhandislik-geologik izlanishlar natijalari

tizimlashtirilgan. Tadqiqot ishlari shahar hududining 110 kvadrat kilometr maydonini qamrab olgan bo‘lib, muhandislik-geologik xaritalarni tuzish jarayonida ArcGIS dasturidan foydalanish natijasida ma’lumotlarning aniqligi va ishonchligi ta’minlandi. Cho‘kish, qoziqli va tasmasimon poydevorlar zaminlarining yuk ko‘tarish qobiliyatini baholashda 312 ta grunt namunalarning fizik-mexanik xossalari tahlil qilindi. Shuningdek, PLAXIS dasturi yordamida bino cho‘kish jarayonining raqamli modellashtirish hisoblari bajarilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Xo‘jayli tumani sho‘rlangan gruntlarida bino va inshootlarni loyihalash va ekspluatatsiya qilish, qishloq joylarini rejalashtirishning muhandislik-geologik ilmiy asoslari yaratilganligi, jumladan, gruntlar va grunt suvlarining sho‘rlanganligi, tasmasimon va qoziqli poydevorlarning yuk ko‘tarish qobiliyati, binolarning cho‘kishi, qoziqlarning yuk ko‘tarish qobiliyatining ularning uzunligiga korrelyatsion bog‘liqligi, Xo‘jayli tumani sharoiti uchun tasmasimon poydevorlarning cho‘kish xarita-sxemalar turkumi yaratilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqotning uslubiy yondashuvlaridan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm viloyatining boshqa tumanlarida shaharsozlik obyektlarini ishonchli, xavfsiz loyihalash va ekspluatatsiya qilishni asoslashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyada ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvlar Xo‘jayli tumanining sho‘rlangan gruntlarida qishloq joylarini yanada samarali rejalashtirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalaridan Xo‘jayli tumani qurilishining bosh rejasini ishlab chiqish va rivojlantirishda, qishloq hududlarini rejalashtirishda, ko‘kalamzorlashtirishda va Xo‘jayli tumani muhofaza ko‘kalamzorlarini barpo etishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya ishi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan kompyuter dasturlarini yaratish uchun guvohnoma olingan (Lentasimon poydevorning optimal kengligini hisoblash) va Xo‘jayli tumani gruntlarining sizot suvlari sathigacha sho‘rlanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini yaratilgan, ulardan Xo‘jayli shahri qurilishining bosh rejasini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xo‘jayli tumani hududi uchun ishlab chiqilgan gruntlar va grunt suvlarining sho‘rlanish kompyuter kartalari seriyasi, 1,0 m chuqurlikda joylashgan gruntlarning hisobiy qarshilik karta-sxemalari, qoziqli poydevorlarning yuk ko‘tarish qobiliyati karta-sxemalari “O‘zshaharsozlik LITI” DM Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali va “Nukusgorlandshaftproyekt” MCHJ loyiha institutlarida joriy etilgan. Natijada loyiha-qidiruv ishlari muddatini qisqartirishga erishilgan.

Xo‘jayli tumani grunt suvlar sathini pasaytirish bo‘yicha tavsiyalar Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastr davlat loyiha-qidiruv instituti Qoraqalpog‘iston filialida (“O‘ZGASHKLITI” DUK) joriy etildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy joy kommunal xo‘jaligi vazirligining ma’lumotnomasi bilan tasdiqlangan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy joy kommunal xo‘jaligi vazirligining ma’lumotnomasi № 04-07/01-2180). Natijada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

hamda Hukumat farmon va qarorlari ijrosini ta'minlashda muayyan darajada hissa qo'shgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining natijalari 12 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-texnik anjumanlarida maruza qilingan va muhoqamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishining natijalari bo'yicha 27 ta ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, konferensiya materiallarida 17 ta tezis (shundan 13 tasi xalqaro konferensiyalarda) chop etilgan. Shuningdek, ilmiy ishga oid O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligidan elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturga № DGU 22126 va ma'lumotlar bazasiga № BGU 01039 raqamli Guvohnomalar olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Dissertatsiyaning kirish qismida** tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Shaharsozlikka geologik muhitning ta'sirini o'rganish va ularning tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida muhandislik-geologik sharoitlar bilan bog'liq shaharsozlikning asosiy muammolari tahlil qilingan. Xorijiy tadqiqotchilarning natijalari shuni ko'rsatadiki, geologik muhitning o'zgarishini hisobga olmasdan qurilgan binolar keraksiz cho'kishiga olib keladi va ko'pincha ularning avariya uchrashiga va erta eskirishiga olib keladi. Qoraqalpog'istonda, shu jumladan Xo'jayli tumanidagi avariya holatidagi binolarni o'rganish natijalari keltirilgan bo'lib, ular shuni ko'rsatdiki, gidrogeologik sharoitlarning o'zgarishi va gruntlar va gruntlarning agressivligining oshishi Qoraqalpog'istondagi binolarning muddatidan oldin eskirishiga olib keladi.

Xo'jayli tumani markazining uch o'lchamli 3D litologik kesimi muhandislik-geologik qidiruv ishlarining fond materiallari natijalari tahlili asosida tuzilgan. Litologik profil tahlili shuni ko'rsatdiki, poydevorlarning ta'sir doirasidagi gruntlar asosan allyuvial yotqiziqlardan iborat bo'lib, ular mayda zarrachali va changsimon qumlar, supes va suglinoklardan tashkil topgan.

Dissertatsiyaning **“Sho'rlangan gruntlar va grunt suvlarining agressivlik darajasini turli beton va po'lat markalari bo'yicha muhandislik-geologik rayonlashtirish”** deb nomlangan 2-bobida Xo'jayli tumani gruntlarining grunt suvlari sathigacha bo'lgan sho'rlanishini o'rganish natijalari keltirilgan. Tadqiqot maydoni 110 kv.km.

Tuzlarning tarqalish xarakterini baholash va bino va inshootlarning yer osti qismlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tuz turlarini aniqlash uchun mavjud texnik hisobotlar, mahalliy loyihalash tashkilotlarining loyihalashtirilayotgan binolar uchastkalarining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosalaridan (gruntlar va grunt suvlarining sho'rlanishi bo'yicha kimyoviy tahlil natijalari) foydalangan holda Xo'jayli tumani gruntlarining sho'rlanish xaritalari tuzildi.

Xo'jayli tumani gruntlarining sho'rlanishini baholash uchun gruntlarning sho'rlanishini o'rganish bo'yicha mavjud ma'lumotlarni to'plash va natijalarini tizimlashtirish asosida tuman hududi sho'rlanishining bir qator sxematik xaritalari tuzildi. Tadqiqot ishida hududning muhandislik-geologik sharoitlarini o'rganish bo'yicha qidiruv tashkilotlarining texnik hisobotlari va O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limining tadqiqot natijalari, shuningdek Qoraqalpog'iston tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti Geologiya laboratoriyasida tuzilgan muhandislik-geologik xulosalarning texnik hisobotlari qo'llanilgan. Sizot suvlari sathigacha joylashgan 59 ta quduq gruntlarining sho'rlanishini aniqlash natijalari qayta ishlandi. Tadqiqot maydoni 110 kv.km. Xaritalarni tuzishda SHNQ 1.02.09-20 "Qurilish uchun muhandislik-geologik qidiruvlar"da ko'rsatilgan me'yorlardan foydalanilgan. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, tadqiqot maydonining har bir kvadrat kilometriga 0,6 ta quduq to'g'ri keladi. O'rganilgan chuqurlik bitta geomorfologik elementdan va ikkitadan ko'p bo'lmagan litologik qatlamlardan iborat. Amaldagi me'yorlarga ko'ra, hududni quduqlar bilan bunday qoplash 1:25 000 masshtabli xarita tuzish imkonini beradi.

Tuzlarning tarqalish qonuniyatlarini baholash maqsadida 1:25 000 masshtabdagi raqamlashtirilgan xaritaga gruntlarning grunt suvlari sathigacha bo'lgan sho'rlanish darajasi aniqlangan nuqtalarning koordinatalari kiritildi. Xaritalarga gruntlar va grunt suvlarining sho'rlanish darajasiga oid laboratoriya tadqiqotlari natijalari joylashtirildi. Tuzlarning hudud bo'yicha tarqalish qonuniyatlarini aniqlash va ularning beton hamda armatura po'latiga ta'siri bo'yicha agressivlik darajasini baholash uchun ArcGIS 10.8 dasturiy ta'minoti yordamida bir qator sxematik xaritalar tuzildi.


Ushbu xaritalarni yaratishda IDW (Inverse Distance Weighted) interpolatsiya usuli qo'llanildi. Mazkur metodda har bir nuqtaning qiymati unga eng yaqin joylashgan o'lchov nuqtalarining qiymatlariga bog'liq holda aniqlanadi. Ya'ni, nuqta qanchalik yaqin bo'lsa, uning ta'sir og'irligi shunchalik katta bo'ladi. IDW metodi yordamida ma'lumotlarning fazoviy uzluksiz maydonini tiklash, nuqtaviy ma'lumotlar asosida sho'rlanish darajasining oraliq qiymatlarini aniqlash va ularning hudud bo'yicha silliq o'tishlarini ko'rsatish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotlar natijalari asosida sho'rlanishning miqdoriy va sifat xususiyatlarini tavsiflovchi (grunt suvi sathigacha) gruntlar sho'rlanishining sxematik raqamlashtirilgan xaritalarining muhandislik-geologik turkumlari tuzildi. 1-rasmda gruntlar sho'rlanishining miqdoriy xarakterini ko'rsatuvchi sxematik

xarita keltirilgan. Ushbu xaritaning tahlili shuni ko'rsatadiki, tuman hududining katta qismi kuchli sho'rlangan sho'rlanish turiga mansub bo'lib, buni poydevorlar qurishda va tuman hududini ko'kalamzorlashtirishda hisobga olish zarur. 2-rasmda suvda eruvchan tuzlar miqdori bo'yicha grunt suvlari sho'rlanishining sxematik xaritasi keltirilgan bo'lib, uning tahlili shuni ko'rsatadiki, butun hududning grunt suvlari sho'rlangan bo'lib, tuzlar miqdori 8 g/l dan oshishi kuzatilgan. Hududning katta qismida grunt suvlarining sho'rliigi 5g/l ni tashkil etadi.


Sho'rlanish darajasi yuqori bo'lgan Xo'jayli tumanida ekologik muhitni yaxshilash va geologik xavflarni kamaytirish maqsadida ko'kalamzorlashtirish va himoya o'rmonlari tizimini shakllantirish zarur. Bu nafaqat atrof-muhit holatini yaxshilaydi, balki aholi salomatligi, sanoat zonalarini xavfsizligi va binolar poydevorining barqarorligiga ham xizmat qiladi.

Hududning geologik sharoiti, ayniqsa shamol eroziyasiga moyil gruntlarning mavjudligi, poydevorlarni sho'rlanishdan himoya qilish zaruriyatini oshiradi. Shu sababli, geoma'lumotlar tahliliga asoslangan holda, kanallar bo'yida va shamol yo'nalishlari bo'ylab yashil belbog'lar tashkil etilishi lozim.





**1-rasm. Xo'jayli tumani gruntlarining sho'rlanish sxematik xaritasi (miqdoriy xarakteri). Shartli belgilar: 1-temir yo'l; 2-avtomobil yo'li; 3-suv yo'llari; 4-suv; 5-quduqlar; 6- kuchsiz sho'rlangan (0,3-1%); 7- o'rtacha sho'rlangan (1-5%); 8-- kuchli sho'rlangan (5-8%); 9- o'ta kuchli sho'rlangan (>8%).**

Hududning geologik sharoiti, ayniqsa shamol eroziyasiga moyil gruntlarning mavjudligi, poydevorlarni sho'rlanishdan himoya qilish zaruriyatini oshiradi. Shu sababli, geoma'lumotlar tahliliga asoslangan holda, kanallar bo'yida va shamol yo'nalishlari bo'ylab yashil belbog'lar tashkil etilishi lozim.




**2-rasm. Xo'jayli tumani grunt suvlarining suvda eriydigan tuzlar bilan sho'rlanish sxematik xaritasi (zich qoldiq bo'yicha).**

**Shartli belgilar: 1 - temir yo'li; 2-avtomobil yo'li; 3 - suv yo'llari; 4 - suv; 5 - quduqlar; 6 - <math>< 3 \text{ g/l}</math>; 7 - 3-5 g/l; 8- 5-8 g/l; 9 - >8 g/l.**



**Shartli belgilar:**



**3-rasm. Xo'jayli tumanida yashil hududlar joylashuvi (shamol yo'nalishlari asosida)**




1-rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, Xo'jayli tumani gruntlarining sho'rlanish darajasi hudud bo'yicha farq qiladi. Ayniqsa, tumaning janubi-sharqiy va qisman shimoliy hududlari nisbatan kam sho'rlangan bo'lib, aynan shu joylarda yashil zonalar tashkil etilgan. Yashil belbog'lar joylashtirilgan Suenli va Qong'iro't kanallari bo'yidagi qismlar esa asosan o'rtacha sho'rlanishga ega bo'lib, bu tabiiy landshaftni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Shamol yo'nalishlari tahliliga ko'ra, ushbu yashil zonalar tuman hududini chang va sho'r zarralaridan himoya qilishda




ham optimal joylashuvga ega.

1-jadvalda Xo‘jayli tumani bo‘yicha poydevorning turli markadagi beton va armatura po‘latiga nisbatan gruntlarning agressivlik darajasi qiyosiy tahlili keltirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, barcha betonlar gruntlarning agressiv ta‘siriga ko‘p yoki kam darajada uchraydi, bunda GOST 22266-2013 bo‘yicha sulfatga chidamli sementlar asosida tayyorlangan beton eng kam agressiv ta‘sirga uchraydi. Umuman olganda, poydevorlarni qurishda qo‘llaniladigan barcha betonlar gruntlarning agressivlik darajasiga qarab izolyatsiya qilinishi kerak. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hududdagi grunt suvlarining atigi bir foizi poydevor armaturasi ta‘siri bo‘yicha agressiv emas. Umuman olganda, bino va inshootlarni ishonchli qurish uchun poydevorning beton va armatura po‘latini himoya qilish bo‘yicha gidroizolyatsiya choralarini ko‘rish, shuningdek, agressiv grunt suvlarini poydevordan uzoqlashtirish uchun drenajni kuchaytirish zarur.

1-jadval

**Poydevor uchun ishlatilgan turli markadagi beton va armaturali po‘latga gruntlarning agressivlik darajasi**

t/r	Beton nomi (grunt suvlari, 5-band)	Gruntlarning agressivlik darajasi 
1	GOST 31108-2020 bo‘yicha portlandsement asosida tayyorlangan beton.	
2	GOST 31108-2020 bo‘yicha tarkibida C3S miqdori 65% dan ko‘p bo‘lmagan portlandsement asosida tayyorlangan beton C3A ko‘pi bilan 7%, C3A + C4AF ko‘pi bilan 22% va shlakoplandsementda	


3	GOST 22266-2013 bo'yicha sulfatga chidamli sementlar asosida tayyorlangan beton	 <table border="1"> <tr><th>Color</th><th>Percentage</th></tr> <tr><td>Green</td><td>68%</td></tr> <tr><td>Yellow</td><td>17%</td></tr> <tr><td>Red</td><td>15%</td></tr> </table>	Color	Percentage	Green	68%	Yellow	17%	Red	15%
Color	Percentage									
Green	68%									
Yellow	17%									
Red	15%									
4	Portlandsement, GOST 31108-2020 bo'yicha shlakoportlandsement va GOST 22266-2013 bo'yicha sulfatga chidamli sementlar asosida tayyorlangan betonlar.	 <table border="1"> <tr><th>Color</th><th>Percentage</th></tr> <tr><td>Red</td><td>62%</td></tr> <tr><td>Yellow</td><td>38%</td></tr> </table>	Color	Percentage	Red	62%	Yellow	38%		
Color	Percentage									
Red	62%									
Yellow	38%									
5	Xo'jayli tumani grunt suvlarining armaturaga ta'siri bo'yicha agressivlik darajasi	 <table border="1"> <tr><th>Color</th><th>Percentage</th></tr> <tr><td>Yellow</td><td>96%</td></tr> <tr><td>Red</td><td>3%</td></tr> <tr><td>Green</td><td>1%</td></tr> </table>	Color	Percentage	Yellow	96%	Red	3%	Green	1%
Color	Percentage									
Yellow	96%									
Red	3%									
Green	1%									

Dissertatsiyaning "**Xo'jayli tumani poydevorlari yuk ko'tarish qobiliyatini muhandislik-geologik rayonlashtirish**" deb nomlangan uchinchi bobida tasmasimon va qoziqli poydevorlar yuk ko'tarish qobiliyatining GAT xarita-sxemalari keltirilgan. Tasmasimon va qoziqli poydevorlarning yuk ko'tarish qobiliyati me'yoriy hujjatlar (QMQ) usullari yordamida bajarildi.

Xo'jayli tumani sharoitida binolar poydevorlarining cho'kishini baholash uchun maxsus cho'kish hisoblari o'tkazildi. Hisob-kitoblar qavatma-qavat qo'shish usuli bilan amalga oshirildi. Shu bilan birga, hisoblashlar poydevor ostidagi grunt turlari bo'yicha taqsimlangan bo'lib, bunda gruntning shartli hisobiy qarshiliklari aniqlangan. Chuqurroq qatlamlarda boshqa turdagi gruntlarning qayta qatlamlanishi sodir bo'ladi. O'suvchi bosimning turli qiymatlari uchun hisoblashlar o'tkazildi. Hisoblashlarda bosim poydevor ostidagi gruntning shartli hisobiy bosimigacha oshirildi.

Quyidagi rasmda keltirilgan xarita tahlili shuni ko'rsatadiki, Xo'jayli

tumanining shimoli-g'arbiy va sharqiy qismlarida tasmasimon poydevorning nisbatan kam cho'kishi kuzatilgan bo'lsa, markaziy, shimoli-sharqiy va janubiy qismlarida ancha sezilarli bo'lgan. Eng ko'p cho'kindilar hududning markaziy qismida kuzatiladi, bu gruntlarning fizik-mexanik xususiyatlari va litologik tarkibining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Ushbu xaritalardan qurilayotgan hududlarni vertikal rejalashtirishda foydalanish mumkin.




**Shartli belgilar**

- 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11

**4-rasm. Eni 1,0 m bo'lgan tasmasimon poydevor cho'kishining sxematik xaritasi. Masshtab 1:25000. Poydevor ostidagi bosim 0,05 MPa. Shartli belgilar: 1 - temir yo'l; 2-avtomobil yo'li; 3 - suv yo'llari; 4 - suv; 5 - quduqlar; 6 - 4,0 - 6,0 mm; 7 - 6,0 - 8,0 mm; 8 - 8,0 - 12 mm; 9-12-14 mm; 10-14-16 mm; 11-16-19 mm.**

Xo'jayli tumani binolari poydevorlarining konstruktiv yechimini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, poydevor tagining chuqurligi 1,0 m atrofida qabul qilingan. Shu munosabat bilan 1,0 m chuqurlikda yotuvchi tasmasimon poydevor osti qatlaminin yuq ko'tarish qobiliyati xarita-sxemalari tuzildi Tasmasimon poydevor kengligi o'lchaminin ta'sirini baholash maqsadida 1,0; 1,2; 1,4 va 1,6 m kenglikdagi poydevorlar uchun hisoblar o'tkazildi. Ushbu xaritalar Xo'jayli tumanidagi binoning joylashuviga qarab poydevor kengligi o'lchaminin oldindan qabul qilish imkonini beradi. Xaritalar ArcGIS kompyuter dasturi yordamida tuzilgan. 5-rasmda 1:25000 masshtabda 1 m kenglikdagi tasmasimon poydevor osti qatlaminin yuq ko'tarish qobiliyati xarita-sxemalari keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, 1,0 m chuqurlikdagi gruntnin eng kam yuq ko'tarish qobiliyati hududning janubiy qismida kuzatiladi.



**Shartli belgilar**




**5-rasm. Eni 1,0 m bo'lgan tasmasimon poydevor ostidagi grunt qatlaminin g hisobiy qarshiligi. Poydevor tagining chuqurligi 1,0 m. Shartli belgilar: 1 - temir yo'l; 2-avtomobil yo'li; 3 - suv yo'llari; 4 - suv; 5 - quduqlar; 6 – 9 – 0,2 MPa; 7 – 0,2 – 0,23 MPa; 8 – 0,23 – 0,26 MPa; 9 – 0,26 – 0,4 MPa.**

Uzunligi 3,0; 5,0 va 8 m bo'lgan 25×25; 30×30; 40×40 sm kvadrat kesimli qoziqlarni hisoblash natijalari bo'yicha ularning yuk ko'tarish qobiliyati xaritasxemalari tuzildi. Hisob-kitoblar Xo'jayli tumanining butun hududida joylashgan 48 ta nuqta uchun amalga oshirildi. Qoziqlar qoqish usuli bilan o'rnatilgan. Yukni gruntga uzatish xarakteriga ko'ra qoziqlar osma bo'ladi.

Gruntlar bo'yicha turli uzunlikdagi va ko'ndalang kesimdagi qoqiladigan osma temirbeton qoziqning yuk ko'tarish qobiliyatini hisoblash natijalari shuni ko'rsatdiki, Xo'jayli tumanining muhandislik-geologik sharoitlari uchun qoziqning uzunligi va ko'ndalang kesimiga qarab qoziqning o'rtacha yuk ko'tarish qobiliyati 120 dan 492 kN gacha o'zgaradi. Bunda minimal yuk ko'tarish qobiliyati 43 kN, maksimal yuk ko'tarish qobiliyati 1084 kN ni tashkil etadi.

6-rasmda Xo'jayli tumanining sxematik xaritasi keltirilgan bo'lib, unda uzunligi 8,0 m, ko'ndalang kesimi 25×25 sm bo'lgan temirbeton qoziqning yuk ko'tarish qobiliyati tasvirlangan. Shunga o'xshash xaritalar uzunligi 3,0; 5,0 va 8,0 m, ko'ndalang kesimi 25x25; 30x30 va 40x40 sm bo'lgan qoziqlarning yuk ko'tarish qobiliyati uchun ham tuzilgan.





**Shartli belgilar**  
 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11

**6-rasm. Osmo qoziqning yuk ko'tarish qobiliyatining sxematik xaritasi.**  
 Uzunligi 8 m, ko'ndalang kesimi 25×25 sm.

Shartli belgilar: 1 - temir yo'l; 2-avtomobil yo'li; 3 - suv yo'llari; 4 - suv;  
 5 - quduqlar; 6 - 90 - 160 kN; 7 - 160-200 kN; 8 - 200 - 220 kN; 9 - 220 - 250  
 kN; 10 - 250 - 300 kN; 11 - 300 - 520 kN

4-6-rasmlarda keltirilgan sxematik xaritalardan Xo'jayli shahri va tuman aholi punktlari bosh rejasini rivojlantirishni texnik-iqtisodiy asoslashda binolarning qavatlar soniga bog'liq holda binolarni joylashtirish o'rinlarini rejalashtirishda foydalanish mumkin.



**Shartli belgilar:**

